

QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik




2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2018-2023 yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023 yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **36421** tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **5269** taga ko'paygan yoki **16,9 %** ga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **10,5** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2022- yilning yanvar - dekabrda **8551** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **90,4 %** ga kam demakdir.

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan soni jami **36421** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **8551** tani tashkil etdi


2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Qarshi shahrida **6813** tani yoki jamiga nisbatan **18,7 %** ni tashkil etdi.

1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, 1- yanvar holatiga, *birlikda*



2023- yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **10,5** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022 yilga nisbatan **1,4** birlikka oshgan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida **23,5** birlik, Shaxrisabz shahrida **13,5** birlik, Muborak tumanida **12,6** birlik, Mirishkor tumanida **11,9** birlik, Dehqonobod tumanida **10,6** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*)*

Qarshi sh.	23,5
Shahrisabz sh.	13,5
Muborak	12,6
Mirishkor	11,9
Dehqonobod	10,6
Nishon	10,1
Koson	9,9
Qarshi	9,8
Kitob	9,8
Qamashi	9,0
Yakkabog'	9,0
G'uzor	8,8
Kasbi	8,1
Chiroqchi	7,8
Shaxrisabz	6,8
Ko'kdala	5,8

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori
ko'rsatkich

Qarshi shahar – 23,5 birlik.

O'rtacha
ko'rsatkich

Nishon tumani – 10,1 birlik.

Eng past
ko'rsatkich

Ko'kdala tumani – 5,8 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida **23,5** birlik, Shahrisabz shahrida **13,5** birlik, Muborak tumanida **12,6** birlik, Mirishkor tumanida **11,9** birlik, Dehqonobod tumanida **10,6** birlik, Nishon tumanida **10,1** birlik, Koson tumanida **9,9** birlik, Qarshi tumanida **9,8** birlik, Kitob tumanida **9,8** birlik kuzatildi.

2023- yilda har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Qarshi
shahri
23,5

Shahrisabz
shahar
13,5

Muborak
tumani
12,6

Mirishkor
tumani
11,9

Dehqonobod
tumani
10,6

Nishon
tumani
10,1

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.		2023- y.
1 493	Qarshi sh.	1 219
516	Shahrisabz sh.	458
532	G'uzor	547
410	Dehqonobod	443
762	Qamashi	600
615	Qarshi	541
686	Koson	653
745	Kitob	638
423	Mirishkor	412
336	Muborak	257
421	Nishon	379
520	Kasbi	458
	Ko'kdala	272
757	Chiroqchi	444
503	Shahrisabz	535
744	Yakkabog'	695

2023- yil yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Yakkabog'	8,1
Shahrisabz	6,3
Chiroqchi	5,2
Ko'kdala	3,2
Kasbi	5,4
Nishon	4,4
Muborak	3,0
Mirishkor	4,8
Kitob	7,5
Koson	7,6
Qarshi	6,3
Qamashi	7,0
Dehqonobod	5,2
G'uzor	6,4
Shahrisabz sh.	5,4
Qarshi sh.	14,2


2023- yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Qarshi shahri – **14,2 %**, Yakkabog' tumani – **8,1 %**, Koson tumani – **7,6 %**, Kitob tumani – **7,5 %**, Qamashi tumani – **7,0 %**, G'uzor tumani – **6,4 %**, Qarshi tumani – **6,3 %** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




2023- yil yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **3188** ta, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **1848** ta hamda sanoatda **1640** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahrida **1219** ta, Yakkabog' tumanida **695** ta hamda Koson tumanida **653** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-2023 yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023 yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlik



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023 yillar davomida jami **31275** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida **10639** (yoki **34,0 %**) ta, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **7670** ta (yoki **24,5 %**), Sanoat sohasida – **5529** ta (yoki **17,7 %**), xizmatlar sohasida **5563** ta (yoki **17,1 %**), va qurilish sohasida – **2074** ta (yoki **6,6 %**) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko'p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar so'ngi 3 yilda eng ko'p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo'nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoqdan ulushi, %da
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi		
Aralash qishloq xo'jaligi	920	14,6
Danakli va po'choqli urug'i bo'lgan mevalar etishtirish	907	14,4
Qorako'l zotlilardan tashqari qo'ylarni ko'paytirish	544	8,7
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko'paytirish	490	7,8
Qorako'l zotli qo'ylarni ko'paytirish	413	6,6
Sanoat		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoe ishlab chiqarish	646	16,6
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	295	7,6
Boshqa to'qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	236	6,1
Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish	199	5,1
Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish	196	5,1
Qurilish		
Turar joy binolarini qurish	410	38,9
YAshash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish	256	24,3
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	188	17,8
Yo'llar va shosselar qurish	51	4,8
Qurilish loyihalarini ishlab chiqish	32	3,0
Savdo		
Ixtisoslashmagan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	2739	32,1
Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	789	9,2
Ixtisoslashmagan do'konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi	756	8,9
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	712	8,3
Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi	635	7,4
Xizmatlar sohasi		
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo'yicha xizmatlar	665	2,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	447	1,9
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	444	1,9
Mehmonxonalar va shunga o'xshash yashash joylari	296	1,2
Avtomobil transportida yuk tashish	202	0,9

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlililar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So'ngi 5 yilda eng ko'p savdo sohasining Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **2081 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarining **23,3 %** ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikatay mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, % da



2023 yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




2023 yil yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **68,1 %** ni tashkil qilib, 2021 yilga nisbatan **1,8** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.


2023 yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **98,1 %** ni, yo'lovchi aylanmasida **96,2 %** ni, yo'lovchi tashishda **91,2 %** ni, savdoda **80,1 %** ni, qurilishda **73,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Qarshi sh.	1 068,7
Kasbi	594,2
Qamashi	415,5
Koson	399,7
Kitob	373,1
Qarshi	337,4
Shahrisabz sh.	319,4
Chiroqchi	305,9
Yakkabog'	301,1
Nishon	229,8
Shaxrisabz	222,1
G'uzor	221,5
Mirishkor	217,1
Muborak	147,0
Ko'kdala	126,2
Dehqonobod	113,6

2023- yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5392,4** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (**1068,7** mlrd. so'm), Kasbi (**594,2** mlrd. so'm), Qamashi (**415,5** mlrd. so'm), Koson (**399,7** mlrd. so'm) va Kitob (**373,1** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Dehqonobod tumanida (**113,6** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-dekabrda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2023- yil yanvar-dekabrda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **23,6 %** ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Ko'kdala tumani (**100,0 %**), Shahrisabz shahri (**74,8 %**), Qamashi tumani (**63,2 %**), Kitob tumani (**54,4 %**), Shahrisabz tumani (**50,3 %**), Koson tumani (**42,5 %**), Yakkabog' tumani (**38,1 %**), Mirishkor tumani (**36,2 %**), Kasbi tumani (**35,7 %**) va Qarshi shahri (**30,7 %**) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2023- yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **5729,7** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **73,2 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **101,4 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qarshi shahri **1171,1** (mlrd. so'm), Qarshi (**594,8** mlrd. so'm), Koson (**484,4** mlrd. so'm), G'uzor (**476,3** mlrd. so'm), Kitob (**469,5** mlrd. so'm), Yakkabog' (**345,5** mlrd. so'm) hamda Chiroqchi (**312,7** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2023- yil yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **4461,4** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **27,6 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **86,7 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Qarshi shahri (**595,5** mlrd. so'm), Qarshi (**555,8** mlrd. so'm), Koson (**464,0** mlrd. so'm), Kitob (**368,3** mlrd. so'm), Chiroqchi (**362,2** mlrd. so'm), Yakkabog' (**277,3** mlrd. so'm) hamda Muborak (**245,5** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2023- yil yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati


2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **32740,7** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **98,1** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **103,2** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Koson (**3251,7** mlrd. so'm), Qamashi (**2986,9** mlrd. so'm), Kasbi (**2929,3** mlrd. so'm), Qarshi (**2736,8** mlrd. so'm), Kitob (**2482,0** mlrd. so'm) hamda Yakkabog' (**2427,0** mlrd. so'm) tumanlariga qayd etildi.

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, *mlrd. so'mda*




2023- yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **15441,9** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **75,3 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **105,7 %** ni tashkil qildi.

2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, *mlrd. so'm*

Qarshi sh.	4 314,4
Shahrisabz sh.	1 508,3
Koson	1 238,0
Qamashi	1 065,0
Yakkabog'	850,7
Kitob	848,2
Chiroqchi	781,6
Mirishkor	646,9
Qarshi	610,9
G'uzor	610,2
Nishon	601,7
Kasbi	593,2
Dehqonobod	530,5
Shaxrisabz	512,5
Muborak	406,7
Ko'kdala	323,1

2017-2027 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, *% da*




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (**4314,4** mlrd. so'm), Shahrisabz shahri (**1508,3** mlrd. so'm), Koson (**1238,0** mlrd. so'm), Qamashi (**1065,0** mlrd. so'm), Yakkabog' (**850,7** mlrd. so'm) va Kitob (**848,2** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **10724,4** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **67,3%** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **110,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Qarshi shahri (**1588,0** mlrd. so'm), Qarshi (**1075,9** mlrd. so'm), Kitob (**966,3** mlrd. so'm), Qamashi (**881,7** mlrd. so'm), Koson (**878,1** mlrd. so'm), Muborak (**711,1** mlrd. so'm) va Mirishkor (**683,7** mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mlrd. AQSH dol.




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


Hajmi, mlrd. AQSH dol.



Ulushi, %da




2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yil yanvar-dekabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **118,3** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **39,0 %** ini tashkil etdi.

2023- yil yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar)




■ hajmi — foizi

2023- yil yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Kitob, Dehqonobod va Ko'kdala tumanlarida – **100,0 %**, Muborak tumanida – **75,1 %**, G'uzor tumanida – **65,3 %**, Qarshi shahrida – **58,4 %**, Kasbi tumanida – **56,8 %**, Koson tumanida – **56,4 %**, Qamashi tumanida – **55,6 %** va Shaxrisabz tumanida – **49,5 %**, eng past ko'rsatkich Nishon tumanida – **11,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2023- yil yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **122,8** million AQSH dollarini yoki jami importning **50,3** % ini tashkil etdi.

2023- yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Ko'kdala tumanida – **100** %, Koson tumanida – **93,2** %, Chiroqchi tumanida – **89,3** %, Qarshi tumanida – **86,1** %, Muborak tumanida – **78,3** %, Shaxrisabz tumanida – **69,9** % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2023- yil yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,8 %** ni tashkil etdi. 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **103,9 %** ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2023- yil yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,3 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **110,0 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2023- yil yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,2 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,1 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yil yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,2 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **108,5 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonaga va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, *birlikda*




2022- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonaga va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1158** ta kichik korxonaga va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **685 (59,2 %)**tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **417 (36,0 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **56 (4,8 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **39,4 % (456 ta)**, xizmatlar sohasida – **24,6 % (285 ta)**, sanoatda – **13,7 % (159 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **11,3 % (131 ta)**, qurilishda – **11,0 % (127 ta)** ni tashkil etdi.

2022- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2022-yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (241 ta), Kitob tumani (94 ta), Shahrisabz shahri (93 ta), Qarshi tumani (88 ta) hissasiga to'g'ri keldi.

2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

Barcha faoliyat turlari bo'yicha




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **65,3** % ni, sanoatda – **60,0** % ni, savdo sohasida – **59,8** % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **44,3** % ni, xizmatlar sohasida – **36,5** % ni, savdoda – **35,9** % ni, sanoatda – **33,3** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – **6,2** % ni, Xizmatda – **6,0** % ni, qurilishda – **4,7** % ni tashkil etdi.

2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

Barcha faoliyat turlari bo'yicha



2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi Qurilishda – 64,7 % ni, sanoatda – 61,6 % ni, Savdo sohasida – 60,1 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi Qishloq xo'jaligida – 45,3 % ni, Savdo sohasida – 36,1 % ni, Xizmat sohasida – 35,2 % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi sanoatda – 7,2 % ni, Xizmat sohasida – 5,9 % ni, Qurilish sohasida – 4,3 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	64,6	28,4	7,0
Band bo'lganlar soni	53,4	41,0	5,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	61,0	33,1	5,8
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari	54,4	37,2	8,4
Raqobat muhiti	65,7	31,0	3,3

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	69,3	25,8	4,9
Band bo'lganlar soni	61,4	34,0	4,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	65,6	29,4	5,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari	60,5	31,9	7,6
Raqobat muhiti	70,6	26,1	3,4


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli